



O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-sentyabr

E'tibor bering:


- 2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 50,2 % tashkil etdi.
- 38,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,1 birlikni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofligini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2018 yilning yanvar-sentyabrda 38,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,6 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (23,1 %), sanoat tarmog'ida (22,4 %), qurilish tarmog'ida (12,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (11,8 %), yashash va ovqatlanishda (7,6 %), tashish va saqlashda (4,0 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2017 y.	2018 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	229966	257127	27161
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	30799	38073	7274
YalM	%	55,2	50,2	-5,0
Sanoat	%	41,2	34,2	-7,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,5	98,5	0,0
Investitsiya	%	36,6	35,5	-1,1
Qurilish	%	68,4	68,8	0,4
Savdo	%	88,6	87,0	-1,6
Xizmatlar	%	56,2	55,4	-0,8
Yuk tashish	%	54,4	54,6	0,2
Yuk aylanmasi	%	78,9	80,1	1,2
Yo'lovchi tashish	%	90,4	90,9	0,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	94,9	95,2	0,3
Ekspart	%	20,7	28,2	7,5
Import	%	52,2	57,4	5,2


2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Toshkent shahrida 23,3 birlikda, Sirdaryo viloyatida 18,0 birlikda, Jizzax viloyatida 16,7 birlikda, Toshkent viloyatida 15,3 birlikda, Navoiy viloyatida 13,7 birlikda va Qashqadaryo viloyatida 13,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10-13 birlik oralig'ida Buxoro, Andijon, Xorazm, Farg'ona, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Samarqand va Namangan viloyatlarida aniqlandi. Surxandaryo viloyatida 9,0 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2018 yilning yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2017 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,4 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,1 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 1 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentyabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 34,2 %, qurilishda - 68,8 %, investitsiyada - 35,5 %, savdoda - 87,0 %, eksportda - 28,2 %, importda - 57,4 % va xizmatlar sohasidagi - 55,4 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2018 yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2018 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 50,2 %ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrda 55,2 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, %



Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi eng ko'p Jizzax (77,2 %), Surxondaryo (74,1 %), Buxoro (71,1 %), Samarqand (70,7 %) va Namangan (69,7 %) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda va 32,6 % ga teng, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 48,3 %ni tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi, %



**2018 yil yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
O'zbekiston Respublikasi	34,2	68,8	55,4	35,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17,7	84,5	57,5	26,0
viloyatlar:				
Andijon	21,6	96,5	72,4	55,8
Buxoro	42,7	84,2	73,2	23,2
Jizzax	66,6	97,0	68,3	43,8
Qashqadaryo	22,2	82,8	70,6	11,5
Navoiy	14,4	68,1	62,6	14,4
Namangan	69,7	94,2	70,3	37,8
Samarqand	52,0	98,3	74,1	54,7
Surxondaryo	46,8	81,9	73,1	29,8
Sirdaryo	50,9	95,4	64,0	50,4
Toshkent	20,0	74,0	74,3	45,0
Farg'ona	35,1	93,8	73,5	54,8
Xorazm	33,9	89,2	69,0	49,3
Toshkent sh.	71,6	73,6	50,2	51,6

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Toshkent shahri (71,6 %), Namangan (69,7 %) va Jizzax (66,6 %) viloyatlari tashkil etadi.

Qurilishda - Samarqand (98,3 %), Jizzax (97,0 %), Andijon (96,5 %) va Sirdaryo (95,4 %) viloyatlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Toshkent (74,3 %), Samarqand (74,1 %), Farg'ona (73,5 %), Buxoro (73,2 %), Surxondaryo (73,1 %) va Andijon (72,4 %) viloyatlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Andijon (55,8 %), Farg'ona (54,8 %) va Samarqand (54,7 %) viloyatlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 51691,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 34,2 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 106,6 %ni tashkil qildi;

– 25239,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 35,5 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 129,9 %ni tashkil qildi;

– 23158,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 68,8 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 110,3 %ni tashkil qildi;

– 58303,1 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar hajmining 55,4 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 100,9 %ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 87,0 % yoki 81038,3 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 2,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 2644,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 28,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 702,3 mln. AQSh dollariga yoki 36,2 %ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,0 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 80,1 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 3,0 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,2 %) ko`payishi ta`minlandi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)




2018 yil yanvar-sentyabr hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (20359,8 mlrd.so'm), Toshkent (4808,5 mlrd.so'm), Samarqand (4167,5 mlrd.so'm) va Andijon (3453,8 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida (1142,7 mlrd.so'm) va Surxandaryo viloyatida (937,1 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (15999,8 mlrd.so'm), Toshkent (8771,1 mlrd.so'm), Farg'ona (7359,6 mlrd.so'm), Samarqand (7099,9 mlrd.so'm) va Andijon (6630,9 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Toshkent shahri (4786,2 mlrd.so`m), Samarqand (2106,3 mlrd.so`m), Buxoro (2029,9 mlrd.so`m) va Qashqadaryo (1984,0 mlrd.so`m) viloyatlarida qayd etildi.




2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Toshkent shahri (17226,1 mlrd.so`m), Toshkent (5841,2 mlrd.so`m) va Samarqand (5271,5 mlrd.so`m), Farg`ona (4795,0 mlrd.so`m) va Andijon (4150,8 mlrd.so`m) viloyatlari hissasiga to`g`ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 996 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 224 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22 %i), qurilish - 127 (13 %), savdo - 234 (23 %), xizmatlar sohasi - 296 (30 %), qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi - 115 (12 %).

2018 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Toshkent shahrida - 25,5 %, Toshkent viloyatida - 10,2 %, Samarqand viloyatida - 8,3 %, Farg'ona viloyatida - 7,9 %, Andijon viloyatida - 7,0 %. Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining ulushi 5,8 %ni tashkil qildi.


2018 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 31,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 55,1 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 35,5 % va 52,6 %, xizmatlar sohasida – 30,4 % va 57,4 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 27,0 % va 54,8 %, sanoatda – 32,1 % va 51,3 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 16,5 %, qurilishda – 13,4 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 18,3 %, xizmatlarda – 12,2 % va savdoda – 12,0 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 65,2 % sanoat korxonalari, 67,1 % – savdo, 69,6 % – xizmatlar, 66,9 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 62,5 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: S.Begmatov

Tel.: (0371) 230-80-75, 230-80-41